

**“Dehqonobod kaliy zavodi” aksiyadorlik jamiyati**  
**yagona aksiyadorining**  
**20-son qarori**

2023-yil 10-noyabr  
soat 15:00

Toshkent shahri  
Navoiy ko‘chasi, 38-uy

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ tomonidan muomalaga chiqarilgan 2 301 392 924 315 (ikki trillion uch yuz bir milliard uch yuz to‘qson ikki million to‘qqiz yuz yigirma to‘rt ming uch yuz o‘n besh) dona oddiy egasining nomi yozilgan hujjatsiz ovoz beruvchi aksiyalari Jamiyat yagona aksiyadori – “O‘zkimyosanoat” AJga tegishli bo‘lganligi sababli kvorum 100 foizni tashkil qiladi.

Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 58-moddasi hamda jamiyat ustaviga muvofiq yakka tartibda qabul qilindi va 2023-yilning 10-noyabr kuni yozma shaklda rasmiylashtirildi.

**KUN TARTIBI:**

**Jamiyatning 2023-yil yakuni bo‘yicha taqsimlanmagan sof foydasini taqsimlash, dividendning miqdori, uni to‘lash shakli va tartibini belgilash.**

**Kun tartibidagi masala yuzasidan:**

Jamiyat yagona aksiyadorining 2023-yil 26-martdagi 4-son qaroriga asosan 2022-yil yakuni bo‘yicha olingan 345 473 172 844,55 so‘m sof foydadan 57 003 073 519,35 so‘m qismi taqsimlanmasdan qoldirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2023-yil 24-25 oktabr kunlari Qashqadaryo viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar bo‘yicha bayonga asosan:

- Dehqonobod tumani “Tog‘aytemir” mahallasida “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” tamoyili asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini olib borish hamda mahalla aholisiga uzluksiz ichimlik suvi yetkazib beruvchi bir dona sig‘imi 150 metr kub bo‘lgan ichimlik suvi hovuzi qurib berish, mahalla fuqarolar yig‘ini binosini qurishga homiylik mablag‘larini ajratish;

- Dehqonobod tumani “Beshbuloq” MFY aholisining chorva mollarini sug‘orish uchun mahalla hududidan ikki dona artezan quduqlarini qazib berish va mahalla huquq-targ‘ibot maskanini qurish va qayta jihozlash ishlariga homiylik mablag‘larini ajratish;

- Dehqonobod tumani maktablarni kuz-qish mavsumiga tayyorlash va ish topishda qiynalayotgan yoshlarga xorijiy tillarni o‘rgatish orqali kasb-hunarga tayyorlash maqsadida jamiyatning 2022-yilgi sof foydasining taqsimlanmagan qismi hisobidan 5,0 mlrd so‘m mablag‘lar ajratish to‘g‘risidagi takliflar ma‘qullangan.

**Qaror qilindi (2 301 392 924 315 dona ovoz, 100 %):**

1. “Dehqonobod kaliy zavodi” AJning taqsimlanmagan 57 003 073 519,35 so‘m sof foydasi quyidagi tartibda taqsimlansin:

- dividendga 88,23 foiz yoki 50 292 981 313,77 so‘m (soliqni hisobga olgan holda);

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2023-yil 24-25 oktabr kunlari Qashqadaryo viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar bo‘yicha bayonga asosan 8,77 foiz yoki 5 000 000 000,00 so‘m homiylikka;

- jamiyatning boshqaruv va nazorat organlari (kuzatuv kengashi, ijroiya organi, taftish komissiyasi a'zolari, korporativ maslahatchi va kuzatuv kengashi kotibi)ni rag'batlantirishga – 3,0 foiz yoki 1 710 100 000,00 so'm.

2. Dividendlarni to'lash mazkur qaror qabul qilingan kundan boshlab oltmish kun ichida naqdsiz pul mablag'larini o'tkazish orqali amalga oshirilsin.

3. Dividendlarni to'lashning boshlanish sanasini 2023-yil 10-noyabr va to'lov tugash sanasi 2024-yil 8-yanvar qilib belgilansin.

**Jamiyatning yagona aksiyadori  
"O'zkimyosanoat" AJ nomidan  
boshqaruv raisi v.b.**



**T. Muxamedjanov**

**"Dehqonobod kaliy zavodi" AJning 2022-yil moliya-xo'jalik faoliyati yakuni bo'yicha olingan sof foydasining taqsimlanmagan qismini taqsimlash yuzasidan  
TAKLIF**

T/r	Nomi	Foiz (%)	Summa (so'm)
1.	<b>Taqsimlanmagan sof foyda jami</b>	<b>100,0</b>	<b>57 003 073 519,35</b>
1.1.	Dividend to'loviga yo'naltiriladigan mablag'	88,23	50 292 981 313,77
1.2.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2023-yil 24-25 oktabr kunlari Qashqadaryo viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar bo'yicha bayoniga asosan homiylikka yo'naltiriladigan mablag'	8,77	5 000 000 000,00
1.3.	Jamiyatning boshqaruv va nazorat organlari (kuzatuv kengashi, ijroiya organi, taftish komissiyasi a'zolari, korporativ maslahatchi va kuzatuv kengashi kotibi)ni rag'batlantirishga yo'naltiriladigan mablag'	3,00	1 710 100 000,00